

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

70

Andijon mashinasozlik instituti  
“Iqtisodiyot” kafedrasii professori,  
iqtisod fanlari doktori Qiyomiddin  
Muftaydinovning 70 yillik yubileyiga  
bag‘ishlangan

**“ERKIN BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY  
ETISH HAMDA SOG‘LOM RAQOBAT MUHITINI  
YARATISH ORQALI HUDUDLARDA  
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI”**

mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy  
anjuman konferensiya **materiallari**

2023-yil 4-mart

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**“ERKIN BOZOR MEKANIZMLARINI JORIY ETISH HAMDA  
SOG‘LOM RAQOBAT MUHITINI YARATISH ORQALI  
HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman  
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO‘PLAMI**  
4 mart 2023 yil

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ И  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

**СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСЫ**  
Республиканская научно-практическая конференция на тему  
**«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В  
РЕГИОНАХ ПУТЕМ РЕАЛИЗАЦИИ МЕХАНИЗМОВ  
СВОБОДНОГО РЫНКА И СОЗДАНИЯ ЗДОРОВОЙ  
КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ»**  
4 марта 2023 года

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN STATE UNIVERSITY AND  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE**

**COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND ABSTRACTS**  
Republican scientific and practical conference on the topic  
**"PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN  
THE REGIONS BY IMPLEMENTING THE MECHANISMS OF A FREE  
MARKET AND CREATING A HEALTHY COMPETITIVE  
ENVIRONMENT"**  
March 4, 2023

**ANDIJON – 2023**

**ББК:97456(575)-МК5.03**

**УДК:33842.451.571**

**“Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog’lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari”** mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar va tezislar to’plami. – Andijon.: AndMI, 2023. 1080 b.

**Ma’sul muharrir:** i.f.d., professor I.Yu.Umarov

**Tahrir hay’ati:** i.f.d., v.b. prof. U.A.Madraximov, i.f.n., dots. G.A.Zufarova, i.f.n., dots. U.I.Maraimova, i.f.f.d.(PhD) D.X.Sarimsakov, i.f.n., dots. Z.A.Isroilov, i.f.n., dots. (PhD) M.A. Axunov, i.f.f.d.(PhD) M.A.Karimov, katta o’qituvchilar: M.G’Abdullaev, Z. Teshaboyeva, G.Satiqulova

**Kompyuter va dizayner boyicha ma’sullar:** S.A.Mirzaev, O.O.Mo’ydinov.

**Taqrizchilar:** i.f.d., prof. N.I.Asqarov, i.f.n. dots. C.M.A’zamov.

Konferentsiya ilmiy maqolari va tezislari erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda soglom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog’liq ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o’qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar va magistantlar va talabalar uchun mo’ljallangan.

*Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to’g’riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o’zlari ma’suldirlar.*

**©Andijon davlat universiteti va Andijon mashinasozlik instituti, 2023 yil.**

#### **4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari**

Mehnat resurslarini shakllantirish va birlashtirishga ta'sir qiluvchi omillar: xulq-atvor normalari va umumiy qadriyatlarning mavjudligi. O'z yo'nalishi bo'yicha jamoa ichidagi birlashish ijobiy - funktsional, tashkilot maqsadlariga erishishga qaratilgan va disfunktsional - salbiy, tashkilotning umumiy maqsadi bilan bog'liq bo'lmagan alohida guruhlarining maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Birlashish darajasiga ko'ra, jamoalarning uchta asosiy turi ajratiladi: birlashgan, ajratilgan va bo'linmagan.

Ajratilgan jamoada, qoida tariqasida, bir-biriga nisbatan do'stona munosabatda bo'lmaydigan bir nechta ijtimoiy-psixologik guruhlar mavjud, intizomsizlik, ijtimoiy harakatsizlik faktlari mavjud.

Birlashgan jamiyatda ijtimoiy-psixologik aloqalar amalda rivojlanmagan, kadrlar almashinuvi yuqori, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari past. Korxonalar to'liq xarajatlarni hisobga olish va o'zini o'zi moliyalashtirish sharoitida yuqori yakuniy natijalarga erishishga qodir barqaror mehnat jamoasini shakllantiradi. Mehnat jamoasining shakllanishi jamoani ishga qabul qilish va uning ijtimoiy rivojlanishi jarayonlarini o'z ichiga oladi. Kollektivni tuzishda shuni hisobga olish kerakki, sotsialistik mehnat jamoasi odamlarni birlashtirish, ularni tashkil etish va boshqarish maqsadidan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mehnat jamoasining shakllanishiga ham ijtimoiy, ham texnik va iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy omillarga jamoa va uning rahbarlarining shaxsiy fazilatlari, partiya tashkilotining yetukligi va boshqalar kiradi, texnik-iqtisodiy omillarga binolarning holati, ish haqi fondi, ishlab chiqarishning texnik jihozlari va boshqalar kiradi. Jamoani shakllantirish va uni shakllantirishda kadrlarni tanlash va joylashtirish, qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda mehnat jamoasini egallash muhim ahamiyatga ega. Mehnat jamoasini shakllantirishda ishchilarning yoshini, ularning ijtimoiy-siyosiy etuklik va faollik darajasini, shaxsning individual psixologik fazilatlarini, odamlarni guruhlariga birlashtirishning mumkin bo'lgan oqibatlarini hisobga olish kerak.

#### **Adabiyotlar**

3. Abdurahmonov O' va boshqalar. "Xodimni boshqarish". O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 1998 y.
4. Ortiqov A.A. Yo'ldasheva SH. M «Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish» - T.: TDIU, 2009.

### **BUXORO VILOYATIDA AHOLINING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASHNING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI**

**Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich.**

Buxoro davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida katta o'qituvchisi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining ish bilan bandlik tarkibini o'rganishda tizim-tarkib uslubi keng qo'llaniladi. Bu uslub o'rganilayotgan ob'ektni kattaroq ob'ekt doirasida tahlil qilishni nazarda tutadi. Masalan, mehnat resurslari tizim-tarkib usulida tadqiq etilganda, ob'ekt – mehnat resurslari hisoblansa-da, undan kattaroq

#### 4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari

ob'ekt – aholi va uning tarkibidagi miqdor va sifat o'zgarishlar, shuningdek, uning joylashuv xususiyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni ham o'rganish talab etiladi.[9]

Buxoro viloyatidagi bandlik holatining tahlili mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish imkonini beradi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida Buxoro viloyatidagi aholi bandligi holatini o'rganishda ijtimoiy demografik omillar va uning xususiyatlarini tadqiq qilish muhimdir.[10]

2021 yil 1 yanvar holatida Buxoro viloyatining jami aholisi 1946,9 ming kishini tashkil qildi. Joriy yil ma'lumotlariga qaraganda, jami aholi sonida shahar aholisining ulushi 36,7% (715,5 ming kishi) va qishloqnikini – 63,3% (1231,4 ming kishi)ni tashkil etdi. Mehnatga layoqatli bo'lgan aholi orasida shahar joylarida yoshi kattaroq kishilarning salmog'i ustun bo'lsa, qishloq joylarida nisbatan yoshroq kishilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday holatning vujudga kelishida ma'lum mehnat malakasi, yuqori ma'lumot va hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilarning asosiy qismi o'z ish kuchining sifat ko'rsatkichlariga muvofiq holda shahardan ish topishga intilishlari, bunda shahar joylaridagi mehnat sharoitlarining yaxshiligi, ish haqining nisbatan yuqoriligi, ish haqining o'z vaqtida to'lab borilishi kabi omillarning ta'siri kattaligi ahamiyatlidir.

1-jadval

#### Buxoro viloyati aholisining o'zgarishining dinamikasi (ming kishi)[10]

Ko'rsatkichlar	yillar			2021 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2019	2020	2021	+, -	%
Aholining umumiy soni	1894,8	1923,9	1946,9	+52,1	102,7
SHundan: SHahar aholisi	701,4	709,5	715,5	+14,1	102,0
Qishloq aholisi	1193,4	1214,4	1231,4	+38,0	103,2

Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, viloyat aholisi so'nggi uch yilda 2,7%ga yoki 52,1 ming kishiga ko'paygan.

Bu davr mobaynida qishloq aholi soni 3,2 %ga yoki 38,0 ming kishiga ko'paygan va shahar aholi soni atigi 2,0 %ga yoki 14,1 ming kishiga ko'paygan. Shunday qilib, qishloq aholi soni shahar aholi soniga nisbatan 23,9 ming kishiga ortiq o'sgan.

Mazkur hol, bir tomondan, qishloq joylarida tabiiy o'sish sur'atining yuqoriligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, qishloqda yashovchi aholiga o'z xo'jaligini yuritishi borasida engilliklarning yaratilishi ham ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan. Endi bunday omillarning viloyatdagi bandlik darajasiga qay darajada ta'sir o'tkazganligini ko'rib o'tamiz.

Buxoro viloyati umuman olganda mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan. 2021 yilning boshida Buxoro viloyatida aholi zichligi 1 kv. kmga 42,3 kishini tashkil etdi yoki O'zbekistonga nisbatan 1,5 marta kam edi.

#### 4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari

Lekin, Buxoro viloyati umuman mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan bo'lsa-da, aholi zichligi bo'yicha turli xil tumanlar mavjud. SHuning uchun Buxoro viloyatida uchta hududni belgilash mumkin: mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan (Jondor, Olot, Peshku, Qorako'l va Qorovulbozor tumanlari), mehnat resurslari bilan ta'minlangan (Shofirkon tumani) va mehnat resurslari ortiq bo'lgan (Buxoro sh., Kogon sh., Kogon, Vobkent, Romitan, G'ijduvon va Buxoro tumanlari) mintaqalar ajralib turadi.

Biz 2019–2021 yillarda maydon va mehnat resurslarining ulushi mos kelganligi darajasini, ularning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bandligi, ish joylari bilan ta'minlanganligi va rasmiy ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni dinamikasi bo'yicha hisobga olib Buxoro viloyati tumanlarini ikki guruxga guruhladik.

Ishsizlar sonining o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan birinchi guruhga mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan tumanlar va Buxoro viloyati bilan qiyoslaganda bandlik va ishsizlik darajasi pastroq bo'lgan tumanlar kirdi.

Aholi shakllanishini o'rganish jarayonida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2021 yilda I-guruh tumanlar hisobidan 31,2% va II-guruh tumanlar hisobidan 68,8% viloyat aholisi shakllangan (1–jadval).

2–jadval

#### 2019–2021 yillar boshida Buxoro viloyati aholisining tumanlar guruhlari hisobiga shakllanishi, %[11]

Ko'rsatkichlar	Jami aholi		Shahar aholisi		Qishloq aholisi		2019–2021 yillarda aholining o'sishi		
	2019y	2021y.	2019y	2021y.	2019y	2021y	jami	shahar	qishloq
I guruh tumanlari	27,2	27,6	18,2	18,5	31,4	31,4	31,2	26,2	31,6
II guruh tumanlari	72,8	72,4	81,8	81,5	68,6	68,6	68,8	73,8	68,4
Buxoro viloyati – jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Shuni aytish lozimki shahar aholisini shakllantirishda asosiy o'rinni II-guruh tumanlari, qishloq aholisini shakllantirishda asosiy o'rinni I guruh tumanlari egalladi.

I-guruh tumanlarda mehnat resurslari bilan ayniqsa kam ta'minlangan hududlar Jondor, Olot, Peshko' va Qorako'l tumanlari bo'lsa, II-guruhda esa ayniqsa mehnat resurslari ortiq bo'lgan Buxoro va Kogon shaharlari, Vobkent, Qorovulbozor, Romitan, Shofirkon, G'ijduvon, Buxoro va Kogon tumanlari bo'ldi.

I-guruh mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan tumanlar viloyatning 66,8% maydonini egallagan holda ularda Buxoro viloyati bilan qiyoslaganda aholining zichligi past, ya'ni 1 kv.kmga 15,5 kishi to'g'ri keladi.

#### 4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari

II-guruh mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan tumanlar viloyatning 33,2% maydonini egallagan holda ularda Buxoro viloyati bilan qiyoslaganda 1 kv.kmga 81,9 kishi to'g'ri keladi, ya'ni aholining zichligi yuqori bo'ldi.

2021 yilga kelib viloyatning jami mehnat resurslari 1070.4 ming kishidan iborat bo'lib, bu jami aholining 54,9%ni tashkil etadi. 2021 yilda mehnat resurslarining soni 2019 yilga nisbatan 7,4 ming kishiga yoki 0,7 %ga kamaygan. Shu bilan birga mehnat resurslari sonining pasayish sur'atlari 2020 yilga nisbatan ham kuzatilgan.

3-jadval

#### Buxoro viloyati mehnat resurslarining balansi (ming kishi)[11]

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2021 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi, %
Iqtisodiy faol aholi	887,7	875,4	876,7	98,7
Jami bandlar	810,1	797,1	783,6	96,7
Shundan:				
Iqtisodiyotning rasmiy sektorida	361	373,8	368,1	101,9
Iqtisodiyotning norasmiy sektorida	449,1	423,3	415,4	92,5
Ish bilan Respublikadan chiqib ketganlar	133,2	155,6	117,0	87,8
Ishsizlar	77,6	78,3	93,1	1,2 marta
Ishsizlik darajasi, %	8,7	8,9	10,6	+1,9
Iqtisodiy nofaol aholi	190,1	208,4	193,7	101,8
Jami mehnat resurslari	1077,8	1083,8	1070,4	99,3

Tahlil qilinayotgan yillarda Buxoro viloyatining barcha hududlarida ayrim hollarda mehnat resurslarining o'rtacha yillik o'sish darajasining pasayishi kuzatildi.

Ya'ni mehnat resurslari tarkibining uchdan ikki qismi qishloq aholisi hisobiga ko'paydi. Shuning uchun ham viloyatda aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal etishda birinchi navbatda qishloq joylariga alohida e'tiborni qaratmoq lozim.

Aholini ish bilan ta'minlash va bandlik muammolarini echishda viloyatdagi mehnat resurslarining yosh tarkibini tadqiq qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Viloyatdagi mehnat resurslarining tarkibini tavsiflovchi o'ziga xos tomonlardan biri – viloyatda 2021 yilgi ma'lumotlar bo'yicha mehnat resurslarining qariyb 99,4 % ni mehnatga layoqatli yoshdagi mehnat resurslari, 0,6 % ni yoshi mehnatga layoqatli yoshga etmagan va undan o'tib ketgan kishilar tashkil etadi. (3-jadval). Viloyatda 2021 yilgi ma'lumotlar bo'yicha mehnat resurslaridan 5,4 ming kishini yoshi mehnatga layoqatli yoshga etmagan va undan o'tib ketgan kishilar tashkil etadi.

Buxoro viloyatidagi aholi bandligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ishsizlik darajasi o'sishining quyidagi omillari ochib berildi:

- xo'jalik yuritishning bozor tamoyillariga o'tilishi munosabati bilan ish o'rinlarining qisqarishi;
- viloyat korxonalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi;



#### **4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari**

- zamonaviy asbob–uskunalar bilan jihozlangan hamda xodimlardan chuqur bilim va malaka talab etuvchi qo‘shma korxonalarining tashkil etilishi;
- davlat va nodavlat sektorlari korxonalarini o‘rtasida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi balansining o‘zgarishi, davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmining nisbatan qisqarishi.

Shunday qilib, viloyatdagi ishsizlikning o‘ssishi iqtisodiy va ijtimoiy – demografik omillar orqali ro‘y berib, bandlik vazifasining hal etilishi quyidagilar hisobiga erishiladi:

- faoliyatning keng turlari, birinchi navbatda, qishloq xo‘jalik xom ashyosini qayta ishlash, mahalliy xom ashyodan xalq iste‘moli mollari, qurilish materiallarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xususiy kichik korxonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish, shuningdek yakka tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoitlar yaratish;
- xizmat sohasini, ayniqsa, II-guruh tumanlarida, jadal rivojlantirish, aholiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy–maishiy va qurilish xizmatlari turlarini ahamiyatli darajada kengaytirish. Xizmat ko‘rsatish sohasi hali to‘liq foydalanilmagan imkoniyatlar bo‘lib, u faqat ishdan bo‘shagan xodimlarnigina emas, balki mehnat resurslarining qo‘shimcha o‘sgan qismini ham ish joylari bilan ta‘minlashi mumkin;
- vaqtincha ish bilan ta‘minlab bo‘lmaydigan aholi toifasini ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalaniishi, o‘zlarining eng ahamiyatli ehtiyojlarini ta‘minlash uchun kafolatlangan manbalarga ega bo‘lishlari lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: «Adolat», 2014. -284 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. «Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur tuzish to‘g‘risida» Farmoyishi. «Xalq so‘zi», 1997, 13 mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 97- sonli Qarori, 2007 yil 15-may.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyot-sharoitida-aholi-ish-bilan-bandligini-ta-minlash/viewer>
5. <https://www.buxstat.uz/uz/>

### **IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONALARDA MEHNATNI SAMARALI TASHKIL QILISHNING ASOSIY YO‘LLARI**

**Qudratova Nigora Umurovna.**

Buxoro davlat universiteti, Menejment va marketing kafedrası o‘qituvchisi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tarmoqlar va ulardagi tarkibiy o‘zgarishlar aholi, ayniqsa, mehnat resurslarining ish bilan bandlik tarkibiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Ish bilan bandlikning turli shakllarda tarqalishining hududiy xususiyatlarini aniqlashda mazkur uslubdan foydalanilgan. Aholi ish bilan bandligi tarkibini tadqiq etishda keng foydalanilgan usullardan biri qiyosiy tahlil usulidir.[8]. Shu bilan birga, aholining ish bilan bandlik tarkibini har tomonlama tahlil